AKMEOLOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TALABALARNING KALOKAGATIYA SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH

Abdurahmonova Dilorom Jovliyevna
Toshkent davlat Pedagogika universitetining mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida akmeologik yondashuvlar asosida talabalarning kalokagatiya sifatlari va ushbu sifatlarni rivojlantirish metodikasiga oid ma`lumotlar, tavsiyalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: akmeologik yondashuv, kalokagatiya, zamonaviy dunyoqarash, ijtimoiy zarurat, akmeologik pozitsiya, metodika, barkamollik, ta'lim va tarbiya, ilmiy-metodik.

Аннотация. В данной статье освещены данные, рекомендации по методике развития калокагатических качеств учащихся на основе акмеологических подходов в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: акмеологический подход, калокагатия, современное мировоззрение, социальная необходимость, акмеологическая позиция, методика, компетентность, образование и воспитание, научно-методический.

Annotation. This article covers information, recommendations on the methodology for the development of calocagatian qualities of students and these qualities on the basis of acmeological approaches in higher education institutions.

Keywords: acmeological approach, kalokagatia, modern worldview, social necessity, acmeological position, methodology, perfection, education and upbringing, scientific and methodological.

Kirish

Bo`lajak o`qituvchi o`z-o`zini takomillashtirishi ta`lim jarayonida va jamiyatdagi turli tuman vaziyatlarda o'z o'rniga ega bo'lishi muhim hisoblanadi. Shiddat bilan rivojlanish bilan bir vaqtda tobora insoniyat xudbinlik botqog`iga botib, turli ko`rinishdagi axloqsiz xatti harakatlar, xiyonatlar, jinoyatlar sodir etmoqda. Talabalarni eng samarali usullar yordamida kalokagatiya darajasidagi (axloqli, har tomonlama go`zal, aql-idrokda tengsiz, bekamu ko`st, ideal…) ustoz qilib tarbiyalay olsak, ular ham o`z o`quvchilarini mana shunday chin ma`nodagi inson qilib etishtira oladi. Bu esa butun jamiyat hayotini go`zallashtirishga, insonlar orasidagi samimiyatning, mehr oqibatning, o`zini sevishi va o`zgalarni qadrlash tuyg`ularining rivojlanishiga hamda ko`plab insoniy fazilatlar to`liqligiga, yashash tarzimiz yaxshi tomonga o`zgarishiga, qolaversa eng muhimi mamlakatimizning ta`lim-tarbiya sohasi eng rivojlangan davlatlar qatoridan o`rin egallashiga zamin yaratadi. Yuqoridagi misollardan ham biz tanlagan mavzu bugungi kunda eng dolzarb ahamiyat kasb etishini anglash qiyin emas.

ISSN 3030-3907

Kelajak avlodga yaxshi hayot tarzini, namunali xulq atvorni, keng dunyoqarash, har sohada eng yaxshisi bo`lishdek sifatlarni meros qilib qoldirishimiz uchun ham bugundan harakatimizni boshalashimiz shart. Ta`lim berishning samaradorligini va yuqori natijalarini egallash uchun kuchli, chuqur bilimga, yuqori iqtidorga, zamon talabiga moslashishga, yuksak madaniyatga, xulqqa, motivatsiyaga va bilim olish uchun moyillikka ega kadrlar o‘ta zarurligini hayot taqozo etmoqda. Har qancha yangi imkoniyatlarga ega bo’lgan texnologiyalardan ko’ra zamonaviy bilimga ega mahoratli va zakovatli,o’z kasbining etuk mutaxassislari, mahorat egalari shakllantirish aniq maqsadga erishishga zamin yaratadi. Yanggi ish faoliyatini boshlagan o`qituvchi duch kelishi mumkin bo`lgan muammoli vaziyatlar oldindan taxmin qilinib, o`sha vaziyatga tushmaslik uchun tavsiyalar va ko`rsatmalar berilishi, muammoli vaziyatga tushganda undan qiyinchiliklarsiz chiqib keta olish metodlari o`rgatilishi zarur.

Ta`lim tarbiya sohasida etakchi mamlakatlarda o‘quv-bilish faoliyatini akmeologik kasbiy yo‘naltirish, oliy ta’lim talabasining kasbni egallashida akmega etishi, yuqori malakaga ega bo‘lishi muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bo‘lajak kadrlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni rivojlantirishda akmeologik yondashuvdan kengroq foydalanish, kalokagatiya sifatlarini rivojlantirish, kasbiy tayyorgarlikni modernizatsiyalash, pedagogik kasbiy ta’lim sharoitida raqobatbardosh pedagoglar tayyorlashni takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega.

Yuqoridagilardan ko`rinadiki bo`lajak o‘qituvchining kalogatiya sifatlarini o‘rganish va tavsiflash, pedagogik ta’lim jarayonini tashkil etishning mazmuni, bosqichlari, usullari va uslublarini ishlab chiqish, shaxsning yaxlitligini ta’minlash zarurligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Ilmiy va nazariy jihatdan tadqiqotning dolzarbligi quyidagilar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni hal qilish zarurati bilan belgilanadi:

- ta`lim beruvchi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirishga aniq ifodalangan ma`naviy ehtiyoj va shaxsni jismoniy-madaniy, ma`naviy-axloqiy, pedagogik va psixologik qo'llab-quvvatlash va estetik onggini rivojlantirish uchun kalokagatiya darajada tayyorlangan kadrlar etishmasligi;
- tabiiy-ilmiy bilimlarni puxta egallagan, pedagogik mahoratni o‘zida mujassam etgan kalokagatiya fazilatlarining ustuvorligini anglash darajasi va o`qituvchilik kasbining o‘ziga xos mavqeini va ijtimoiy soha uchun kadrlarni kasbiy tayyorlash masalasi etarlicha echimini topmaganligi.
- kalokagatiya sifatlari shakllangan pedagogni har tomonlama ma`naviy-axloqiy, jismoniy-madaniy, estetik, ijtimoiy-pedagogik bilimlar majmuining egasi sifatida kasbiy tayyorgarligiga va etuk kasbiy ta'lim tizimidagi bo`lajak

ISSN 3030-3907

o'qituvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan yuqori talablar, ushbu talablarga javob berish;

- o'qituvchi ta'limining an'anaviy mazmuni va ijtimoiy-pedagogik ta'lim jarayonining ko'p qirrali, o'zgaruvchan mazmuniga bo'lgan ehtiyoj, o'qituvchining kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy, akademik va ijtimoiy fazilatlarini birlashtirishga va ularni kasbiy etuklik darajasiga ko'tarishga qaratilgan;
- kalokagatiya o‘qituvchining kasbiy etukligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik ta’lim jarayonini yaxlit ilmiy-nazariy asoslash va uslubiy jihatdan ta’minlash amaliyotining zarurligi, pedagogik tadqiqotlarda ushbu muammoning nazariy jihatdan etarlicha ishlab chiqilmaganligi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Respublikamizning bir qator pedagok, psixolog olimlari akmeologik yondashuv masalasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. Jumladan, G.H.Tillayeva akmeologik yondashuvning muhimligini qayd etgan holda, axloqan pok, intellektual etuk, yuksak professional kadr – akme shaxs jamiyatni ijtimoiy - iqtisodiy barqarorlashtirishning asosiy kuchi, jahon standartlariga javob beradigan professional etuk kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalardan biri, [2;192b]. deb ko‘rsatgan bo‘lsa, A.Sh.Saliyev yoshlarning intiluvchanligini aniqlashda akmeogrammaning ahamiyatini [3;227b]., G.O.Ernazarova esa kasbiy ta’lim jarayoniga akmeologik yondashuvni tadbiq etish masalasini yoritgan[4;532-536b]., . "Akmeologiya" tushunchasi ("akme" - qadimgi yunon tilidan tarjima qilingan - eng yuqori nuqta, gullash, etuklik, eng yaxshi vaqt)ni ilmiy atamashunoslikka 1928 yilda N.A.Ribnikov kiritdi, bu yosh davrlari psixologiyasining etuklik davrini nazarda tutadi [1;15b]. Bu borada Xatima Shayxova: «Akmeologiya — zamonaviy yangi fan. Uning muhim vazifasi muayyan kasb-korlikning yuksak pog‘onaga ko‘tarilishidagi turli jihatlarini o‘rganishdir. Akmeologiyaning mazmun-mohiyati — insonning har bir kasb-hunarni bilim orqali chuqur egallashi, uning jamiyat rivoji, millat ravnaqi, turmush farovonligi hamda ijtimoiy taraqqiyotning iqtisodiy, siyosiy, ma’naviyhuquqiy jihatlariga ijobiy ta’sirini kuchaytirishga xizmat qilishini chuqur anglashi, o‘z ijodiy faoliyatini, kasb-hunar sohasidagi burch va mas’uliyatini ado etishga sarflash maqsadida mukammallik va kamolotga erishishni o‘rganishdan iborat» [5;115], deydi.

Akmeologik yondashuv-kalokagatiya shaxsni rivojlantirishda asosiy umumlashtiruvchi kategoriya sifatida belgilanib, kalokagatiya sifatlarini ilmiy-amaliy hal qilish imkonini beradigan ilmiy tadqiqot tamoyillari, metodlari va usullari to‘plamini amalda qo‘llash hamda kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun motivatsiyani oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Biz

ISSN 3030-3907

ham o‘z ilmiy tadqiqot ishlarimizda akmeologik yondashuv asosida kalokagatiya fazilatalarini rivojlantiruvchi metodlardan foydalandik. Shu o`rinda “kalokagatiya” atamasiga to`xtalib o`tamiz. “Kalokagatiya” bir vaqtning o'zida ijtimoiy-siyosiy, pedagogik, axloqiy va estetik idealdir. Kalokagatiya fazilatlariga ega shaxs fuqarolik jamiyatining jamoaviy maqsadlariga erishishga intiladigan va ularga erishishga qodir bo'lgan ideal shaxsdir. Kalokagatiya ideali zamonaviy madaniyatda mavjud bo'lgan barkamol shaxs idealiga ta'sir ko'rsatdi.

Qadimgi odob-axloqda qo‘llanilgan atama ikki sifatdan iborat: kalos (“chiroyli”) va ἀgathos (“mehribon”), bu taxminan “axloqiy go‘zallik” degan ma’noni anglatadi. Bu atama Qadimgi Yunoniston falsafasining klassik davrida katta ahamiyatga ega edi, ammo uning oldingi tarixini kuzatsak, kalokagatia yunon Paideia ta'lim tizimi bilan chambarchas bog'liqligini ko`rish mumkin. Kalokagatiya (kalokagatiya, boshqa yunon. καλοκαγαθία, καλςς κα ὰ νγαθός chiroyli va yaxshi, chiroyli va mehribon) jismoniy (tashqi) va axloqiy (ma'naviy, ichki) fazilatlarning uyg'un kombinatsiyasi, insonni tarbiyalash ideali sifatida inson shaxsining mukammalligi.

Sokrat o'z nutqida "go'zal", "yaxshi" va "foydali"tushunchalarini aniqlaydi. Shunga ko'ra, tanasiz ruhning foydasi va go'zalligi, agar u to'g'ri mavjud bo'lsa, fazilat bo'lib chiqadi. Boshqa bir suhbatda Sokrat "kalokagatiya" tushunchasini "sharmandali" tushunchasi bilan taqqoslaydi va shu bilan kalokagatiyani "axloqiy ong"bilan yaqinlashtiradi [6;],.

Aflotun insonning uyg'un rivojlanishi va tana va ruh o'rtasidagi bevosita bog'liqlik haqida gapiradi. [7;],

Bu atama Platonda tashqi go'zallik ma'nosida uchraydi, masalan, Parmenid dialogida, ammo bu juda kam uchraydi. Asosan, Kalokagatiya Platonda "fazilat"tushunchasining sinonimi sifatida taqdim etilgan. "Gorgius" dialogida siz "munosib odam" yomon, ya'ni adolatsiz, buzuq va beparvolikka qarshi ekanligini, shuningdek "Sofist" da "odam kalokagatik emas va aqlli emas, degan johillik yomon"ekanligini o'qishingiz mumkin.o'z-o'zidan juda mamnun"[8;115],. Ko'rib turganingizdek, Platon uchun kalokagatiya estetikadan ko'ra ko'proq axloqiy tushunchadir. . [7;],

Aristotel kalokagatiyani so'zning keng ma'nosida mukammal fazilat deb hisoblagan. U axloqiy go'zallikni kalokagatiya bilan aniqlaydi va ikkinchisiga axloqiy tus beradi. "Buyuk etika "da siz" axloqiy go'zallik fazilat haqida gapiradi: axloqiy go'zallar adolatli, Jasur, ehtiyotkor va umuman barcha fazilatlarga ega " deb o'qishingiz mumkin (7.II 9, 1207b23-26). "Evdem etikasi" dagi kalokagatiya insonga berilgan sifat sifatida taqdim etilgan. Bunday kalokagatik odam barcha ajoyib imtiyozlarga ega va amalda go'zallik uchun harakat qiladi. Boshqacha qilib

ISSN 3030-3907

aytganda, tashqi yaxshilik uchun emas, balki eng fazilatli yashashga intilgan kishi kalokagatiyani namoyish etadi (bu erda Aristotel Spard aholisini misol qilib keltiradi.

A.F.Losev “kalokagatiya” atamasini quyidagicha izohlagan: Ushbu kompozitsion axloqiy va estetik tushuncha o'ziga xos kentavrdir. Ot odam g'oyasi mifologik antik davrda mavjud bo'lgani kabi, xuddi shunday "chiroyli yaxshi" tushunchasi faqat axloqiy va estetik ong, aslida, mavjud bo'lgan davr uchun ma'noga ega bo'lishi mumkin edi. sinkretik, birlashgan[8;100b]. Demak A.F.Losev kalokagatiya atamasini har bir davrga hos axloqiy va estetik ongi etuk rivojlangan ideal deb tushuntirgan.

METODOLOGIYA

O‘qituvchilarning jamiyat ravnaqiga qo‘shgan hissasi, har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalash orqali amalga oshiriladi. Shu bois, bo‘lajak o‘qituvchilarda yuqori axloqiy, estetik va jismoniy barkamollik fazilatlarini shakllantirish, ayniqsa, kalokagatiya modelining pedagogik jarayonga integratsiyasi dolzarb masala hisoblanadi. Kalokagatiya, jismoniy go‘zallik (kalos) va ruhiy yaxshilik (agathos)ning uyg‘unligi tamoyiliga asoslanadi. Bu model bo‘yicha, o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki talabalarda yuqori ma’naviy va axloqiy fazilatlarni shakllantiruvchi shaxs sifatida namoyon bo‘lishi zarur.

Akmeologik yondashuvlar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kalokagatiya fazilatlarini rivojlantirish metodikalarini takomillashtirish zarurati ortadi. Akmeologiya – insonning eng yuqori imkoniyatlariga erishishi jarayonini o‘rganadigan fan bo‘lib, bu yondashuv bo‘yicha, shaxsning barcha rivojlanish bosqichlari va uning individual xususiyatlari inobatga olinadi. Bu jarayonni amalga oshirish uchun ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar, zamonaviy o‘qitish metodlari, va individual yondashuvlar qo‘llaniladi.

Quyidagi jadvalda talabalarda kalokagatiya fazilatlarini shakllantirishda samarali yordam beradigan texnikalar keltirilgan:

Texnika	Tavsif
O‘z-o‘zini tushunish va o‘z-o‘zini rivojlantirish	Talabalar o‘zining ichki dunyosini anglab, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash orqali shaxsiy rivojlanishning asosiy yo‘nalishlarini belgilashlari kerak.
Borliqni his qilish	Atrof-muhit, jamiyat va tabiat bilan uyg‘unlikda yashashni anglash orqali talaba o‘zining axloqiy va estetik qarashlarini rivojlantiradi.

ISSN 3030-3907

Texnika	Tavsif
Energiya to‘plash va to‘g‘ri taqsimlash	Talabalarda mehnatga bo‘lgan mas’uliyatni rivojlantirish, o‘z energiyasini samarali taqsimlash va ish vaqti bilan shaxsiy vaqt o‘rtasida muvozanatni saqlashni o‘rgatish.
To‘g‘ri maqsad qo‘ya bilish	Talabalar o‘zlarining maqsadlarini aniqlashda va ularga erishishda izchil va maqsadga yo‘naltirilgan harakat qilishlari kerak.
Maqsad sari etti qadam	O‘quvchilarni o‘z maqsadlariga erishish uchun aniq va izchil qadamlarni belgilashga yordam beruvchi metod.
O‘qish-uqish-yuksalish	Talabalarga ilmiy izlanishlar va o‘zini o‘zi rivojlantirish imkoniyatlarini yaratish orqali ma’naviy yuksalish va o‘zgarish imkoniyatlarini oshiradi.
Empatiya va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish	Talabalarda boshqalar bilan empatiya qurish, ularni tushunish va ularga yordam berish fazilatlarini rivojlantirish.
Jismoniy faollik va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish	Talabalarni jismoniy faollikni rivojlantirishga va sog‘lom turmush tarziga e’tibor qaratishga undash. Bu jarayon jismoniy va psixologik barqarorlikni oshiradi.

Ushbu texnikalar, talabalar shaxsining ma’naviy va jismoniy barkamolligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirishga yordam beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Akmeologik yondashuvlar talabalarning kalokagatiya sifatlarini rivojlantirishda samarali natija berishi uchun quyidagilar amalga oshirilishi kerak: kalokagatiya sifatlarini rivojlantirish usullari muammosining qay darajada o’rganilganligini tahlil etish; bo’lajak o’qituvchilarning kalokagatiya sifatlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlarini o’rganish; bo’lajak o’qituvchilarning kalokatiya sifatlarini rivojlantirishning samaradorligini

ISSN 3030-3907

ta’minlovchi pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash; akmeologik yondashuv asosida bo’lajak o’qituvchilarning kalokagatiya sifatlani rivojlantirish metodikasini takomillashtirish, amaliyotga tadbiq etish. Aynan kalokagatiya sifatlarini rivojlantirish akmeologik yondashuv asosida talabalarni “ideal ustoz” darajasida shakllantirishning bosh maqsadlaridan biridir. Talabaning Kalogatiya sifatlarini tizim sifatida rivojlantirish asosida bo`lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishning amaliy va nazariy metodlarini ishlab chiqish dolzarbligini ko'rsatish uchun barcha asoslar mavjud. OTM bitiruvchisining kasbiy faoliyatga kirishishi uchun etakchi o`rin egallovchi metodlar va tavsiyalar berilishi zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kalokagatiya fazilatlarini shakllantirish, o‘qituvchilarning ilmiy, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu jarayon o‘qituvchilarning faqat akademik bilimlarini emas, balki shaxsiy va kasbiy fazilatlarini ham mustahkamlashga yordam beradi. Kalokagatiya modelini ta’lim jarayoniga joriy etish o‘qituvchilarning jamiyatga mos, barkamol shaxslar sifatida shakllanishini ta’minlaydi.

Shuningdek, pedagogik metodika, individual yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘qituvchilarni har tomonlama rivojlantirish mumkin. Maxsus kurslar, treninglar va amaliyotlar orqali o‘qituvchilarning shaxsiy rivojlanishi uchun sharoit yaratish, ta’lim sifatini oshirishga olib keladi. O‘qituvchilar o‘zaro tajriba almashish va hamkorlikda ishlash orqali pedagogik jarayonni yaxshilashlari mumkin.

Natijalarni baholash tizimi ishlab chiqilib, doimiy tahlil qilish orqali o‘qituvchilarning o‘zini takomillashtirish jarayoni samarali amalga oshiriladi. Bu nafaqat o‘qituvchilarning, balki butun ta’lim tizimining rivojlanishiga yordam beradi.

Takliflar:

1. Kalokagatiya modelini joriy etish uchun o‘qituvchilarga mo‘ljallangan maxsus kurslar va treninglar tashkil etilsin.
2. O‘qituvchilarning shaxsiy rivojlanishi uchun innovatsion pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlardan keng foydalanilsin.
3. O‘qituvchilarni tajriba almashish, amaliyotlar va kuzatuvlar orqali o‘zaro hamkorlikda rivojlantirishga e’tibor qaratilsin.
4. Ta’lim jarayonini samarali baholash tizimlari ishlab chiqilsin, bu o‘qituvchilarning o‘zini takomillashtirishga yordam beradi.

Ushbu yondashuvlar ta’lim tizimining sifatini oshiradi, jamiyat ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlanishiga xizmat qiladi.

ISSN 3030-3907

Tadqiqot ishimiz talabalarning kelgusi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli karyera, qo`rquvni engish,, o`quvchilarni jalb qila olish va darsni to`g`ri tashkil qilish kabi dolzarb muammolarga echim topishiga tom ma`noda hizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI:

1. Деркач А.А. Методолого-прикладные основы акмеологических исследований.-М.:1999
2. Tillayeva G. Akmeologiya asoslari: o‘quv qo‘llanma /. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. — T.: «Tafakkur Bo‘stoni», 2014. —192 b.
3. Saliyev A.Sh. Yoshlarning intiluvchanligini aniqlashda Akmeogammaning ahamiyati// Yoshlarning akmeologik qarashlarini shakllantirishda sog‘lom turmush tarzining o‘rni. Toshkent: Falsafa va huquq instituti, 2008.-B.227.
4. Isroilov Q.T., Ernazarova G.O. Pedagogical development technology greativity of future teachers of history in the conditions of higher education // Academicia An International Multidisciplinary Research Journal ISSN:2249-7137 Vol.11,Issue 2, Fevruary 2021, 532 536 betlar
5. Shayxova X.A. Ma'naviyat — kamolot ko‘zgusi. — T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2009. 115-b.
6. Suqrot Aflotun; 4-jild: Aristotel va kech klassik;
7. Aflotun. – qaniydi? Gorgius: to'rt jildli asarlar to'plami. - Jild 1., M.: Fikr, 1990 1994.
8. Losev A. F., Shestakov V. P. estetik toifalar tarixi. M., 1965 yil. 100-sahifa Manba. Kirish sanasi: 2017 yil 6 dekabr. 2017 yil 6 dekabrda Arxivlangan

ISSN 3030-3907